



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 /ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozov Komil Bahromovich</i>	122
34	ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ И ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМАТИКИ «СТАТИСТИКА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ» <i>Сиддиков Алишер Журакулович, Зокирова Муниса Жамолiddин кизи</i>	125
35	TA'LIM SIFATINING MEHNAT BOZORIDAGI BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRI <i>Hamroyeva Dilso'z Yahoyevna, Ro'ziyeva Shaxruza Sherali qizi</i>	131
36	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING NAZARIYASINI SHAKLLANISHI <i>Isakova Naima Ikromjonovna</i>	134

37	O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI <i>Qosimova Hilola Jamshedovna</i>	138
38	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING SUG'URTA BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI <i>Xakimzoda Maftuna, Yusuf qizi</i>	143
39	O'ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH <i>Ikramova Nasiba Axmadovna</i>	146
40	LOGISTIKA TIZIMLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Abdaturapova Dildora Farxodjon qizi</i>	149
41	SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI <i>Djumaniyazov Shavkat Raximovich</i>	151
42	O'ZBEKISTON SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matkarimova Iroda Muxtorovna</i>	155
43	YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI <i>Yoqubova Fotimaxon Baxromjonovna</i>	159
44	O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA ISLOM BANK XIZMATLARINI YO'LGA QO'YISHNING DOLZARBLIGI VA IKKILIK BANK TIZIMI <i>Sohibnazarov Abdurashid Abduvohidovich</i>	162
45	O'ZBEKISTONDA KIBERJINOYAT RISKLARINI STRATEGIK BOSHQARISHNI HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI <i>Xasanov Umidjon Yusupovich</i>	167
46	CLOUD-BASED MANAGEMENT SYSTEMS AND THEIR IMPACT ON UNIVERSITY GOVERNANCE: A PROPOSED PLS-SEM FRAMEWORK FOR HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN <i>Olimjonov Abbasjon Olimjonovich</i>	170
47	ПРОГНОЗНО-ПЛАНОВАЯ СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И СБАЛАНСИРОВАННОСТИ РЫНКА ТРУДА <i>Холбаева Сабина Рустамовна</i>	173
48	TURIZM IQTISODIYOTIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI <i>Jalolov Otabek Oybek o'g'li</i>	177
49	MAHALLA TIZIMIDA MADANIY LOYIHALARNI BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN IJTIMOYIY-IQTISODIY MODELI: JAMOATCHILIK ISHTIROKI, RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INSTITUTSIONAL ISHONCH YONDASHUVI <i>Umarova Roxilaxon Xaliljon qizi</i>	181
50	KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA «YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY TALQINI <i>Aripov Oybek Abdullayevich</i>	185

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA ISLOM BANK XIZMATLARINI YO'LGA QO'YISHNING DOLZARBLIGI VA IKKILIK BANK TIZIMI

Sohibnazarov Abdurashid Abduvohidovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
E-mail: abdurashidsahibnazarov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston moliya bozorida islom bank xizmatlarini joriy etishning dolzarbligi, iqtisodiy va huquqiy asoslari hamda ikkilik bank tizimini shakllantirishning ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda islomiy moliyalashtirish tamoyillari, an'anaviy bank tizimidan farqli jihatlari, xalqaro tajriba va mamlakatda mavjud imkoniyatlar o'rganilgan. Shuningdek, islom bank xizmatlarini joriy etish orqali investitsion muhitni yaxshilash, moliyaviy inkluzivlikni oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida O'zbekistonda ikkilik bank tizimini rivojlantirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: islom banki, islom moliyasi, ikkilik bank tizimi, shariat tamoyillari, moliya bozori, moliyaviy inkluzivlik, investitsiyalar, murabaha, musharaka, mudaraba.

Abstract: This article examines the importance of introducing Islamic banking services into the financial market of Uzbekistan and the role of a dual banking system in ensuring sustainable financial development. The study analyzes the principles of Islamic finance, its differences from conventional banking, international best practices, and the opportunities for implementation in Uzbekistan. It also highlights the potential of Islamic banking to improve financial inclusion, attract foreign investment, strengthen the investment climate, and enhance economic stability. Based on the findings, practical recommendations are proposed for the effective development of a dual banking system in Uzbekistan.

Keywords: Islamic banking, Islamic finance, dual banking system, Shariah principles, financial market, financial inclusion, investment, Murabaha, Musharakah, Mudarabah.

Абстрактный: В данной статье рассматриваются актуальность внедрения исламских банковских услуг на финансовом рынке Узбекистана, а также значение формирования двухуровневой (дуальной) банковской системы. Исследуются принципы исламского финансирования, их отличия от традиционной банковской системы, международного опыта и перспективы применения в Узбекистане. Особое внимание уделено возможностям повышения финансовой доступности, привлечения иностранных инвестиций, укрепления инвестиционного климата и обеспечения устойчивого экономического развития посредством исламского банкинга. По результатам исследования предложены практические рекомендации по развитию дуальной банковской системы в Узбекистане.

Ключевые слова: исламский банкинг, исламские финансы, дуальная банковская система, принципы шариата, финансовый рынок, финансовая инклюзивность, инвестиции, мурабаха, мушарака, мудараба.

Kirish (Введение/Introduction).

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bugungi islohotlar sharoitida mamlakatda islom moliya institutlari, ayniqsa, islom banklari faoliyatini shakllantirish va ularni rivojlantirish borasida keng ko'lamli tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarga ustuvorlik qaratilib kelinayotganligi bu turdagi moliya institutlarini rivojlantirishning zaruriyati strategik ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatib, mazkur yo'nalishdagi mavjud imkoniyatlarni to'liq tahlil qilish orqali rivojlanish ustuvorliklarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Mamlakat aholisining diniy qarashlari sababli an'anaviy banklardan foydalanmasligi moliyaviy resurslarning yashirin (norasmiy) iqtisodiyotda qolib ketishiga va tizim kengayishining cheklanishiga olib kelmoqda. Bu vaziyatda islom moliyasi instrumentlarini joriy etish yuqori foiz va qat'iy garov cheklolarini bartaraf etib, kichik biznes va boshqa tabdirkorlik subyektlarini rasmiy moliyaviy munosabatlarga jalb qilish, shuningdek, uzoq muddatli investitsiyalarni shakllantirish va moliyaviy inkluzivlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Jahon moliya bozorida islom moliyasi va islom bankchiligi oxirgi o'n yilliklarda eng tez rivojlanayotgan moliyaviy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim foizsiz moliyalashtirish, risklarni adolatli taqsimlash, real aktivlarga asoslangan operatsiyalar hamda ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga asoslanishi bilan an'anaviy bank tizimidan farq qiladi. O'zbekistonda ham iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida moliya bozorini diversifikatsiya qilish, investitsiyalar oqimini kengaytirish hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida islom

bank xizmatlarini joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Xususan, mamlakatda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati muqobil moliyalashtirish mexanizmlariga ehtiyojni yanada oshirmoqda [1].

Islom taraqqiyot bankingning 2024-yilgi hisobotida islom moliyasi aktivlari hajmi yildan-yilga ortib borayotgani, ushbu tizimning infratuzilma, yashil iqtisodiyot hamda barqaror rivojlanish loyihalarini moliyalashtirishdagi ahamiyati tobora kuchayib borayotgani ta'kidlangan. Hisobotda islom banklari iqtisodiy inqirozlar davrida nisbatan barqaror faoliyat yuritishi va real sektor bilan uzviy bog'liqligi alohida qayd etiladi [2].

O'zbekiston olimlari tomonidan ham islom bankchiligining mamlakat moliya tizimidagi istiqbollari keng tadqiq etilgan. Jumladan, Sobirov islom bank ishini joriy etish uchun huquqiy baza, malakali kadrlar tayyorlash va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish zarurligini asoslab bergan. Muallifning fikricha, islom banklari iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiladi [3].

Bayjanov islom moliya instrumentlari, jumladan, murabaha, musharaka, ijara, sukuk va mudaraba kabi vositalarning zamonaviy rivojlanish holatini tahlil qilib, ularning investitsion faollikni oshirishdagi o'rni ko'rsatadi. Muallif ushbu instrumentlarni milliy moliya bozoriga bosqichma-bosqich integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi [4].

Babamatov transformatsiyalash jarayonida islom bankchiligini rivojlantirishning institutsional yo'nalishlarini tahlil qilib, ikkilik bank tizimi (Dual Banking System) iqtisodiyotda raqobat muhitini

kuchaytirishi, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishi hamda bank xizmatlari qamrovini kengaytirishini ilmiy asoslaydi [5].

Irgasheva Malayziya tajribasini o'rganib, islom moliyasini rivojlantirishda maxsus qonunchilik, Shariat kengashlari faoliyati, soliqqa oid imtiyozlar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining muhimligini ko'rsatgan. Ushbu tajriba O'zbekiston uchun ham amaliy ahamiyat kasb etishi qayd etiladi [6].

Jo'rayev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda islom banklari faoliyat yuritayotgan davlatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari nisbatan yuqori ekan, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda investitsiya faolligining ortishi kuzatilgan empirik ma'lumotlar asosida asoslangan [7].

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ham islom moliyasining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri keng o'rganilgan. Law va Ridhwan Indoneziya misolida islom moliya tizimining barqarorligi iqtisodiy o'sish va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil ekanligini ekonometrik usullar yordamida isbotlangan [8].

Acdoyuran va hammualiflar Islom hamkorlik tashkiloti mamlakatlari misolida islom moliyasining rivojlanishi siyosiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va ekologik sifat ko'rsatkichlari bilan ijobiy bog'liqligini aniqlagan. Tadqiqot natijalari islom moliyasi nafaqat iqtisodiy, balki barqaror rivojlanish maqsadlariga ham xizmat qilishini ko'rsatadi [9].

Jimoh va hammualiflarning tadqiqotida islom moliyaviy xizmatlarining banklar rentabelligiga ta'siri baholanib, xizmatlar diversifikatsiyasi foydalilik darajasini oshirishi hamda risklarni kamaytirishi aniqlangan. Ayniqsa, foyda va zararlarni taqsimlash tamoyiliga asoslangan moliyalashtirish modellari banklarning uzoq muddatli barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi [10].

Haryanto va hammualiflar Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar misolida islom moliyasining kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilib, islom moliyalashtirish vositalari ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlashda samarali instrument ekanligini asoslaydilar [11].

Shireen va Rafi'i pandemiyadan keyingi davrda islom moliyasining moliyaviy inklyuziya hamda bank tizimi barqarorligini ta'minlashdagi rolini tadqiq etib, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda islom banklari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar [12].

Haydarov O'zbekiston tijorat banklarida islom moliya tamoyillarini qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilib, amaldagi banklar tarkibida islomiy "oyna" (Islamic Window) xizmatlarini joriy etish ikkilik bank tizimiga o'tishning dastlabki bosqichi bo'lishi mumkinligini qayd etgan [13].

Babamatovning so'nggi ilmiy ishlanmalarida islom moliya institutlarining zamonaviy xususiyatlari, jumladan, Shariat nazorati, aktivlarga asoslangan moliyalashtirish, ijtimoiy mas'uliyat va risklarni boshqarish mexanizmlari batafsil tahlil qilingan. Muallif ushbu institutlarning xalqaro moliya bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish omillarini ko'rsatib beradi [14].

Saydirasulov Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida islom moliya bozorining rivojlanish istiqbollari baholab, aholining ushbu xizmatlarga bo'lgan talabining ortib borayotgani, xorijiy investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilayotganini qayd etadi. Shuningdek, huquqiy bazani takomillashtirish va xalqaro standartlarni joriy etish zarurligi asoslanadi [15].

Oltayev zamonaviy sharoitda islom moliya bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib, raqamli texnologiyalar, fintex yechimlari va islom bank xizmatlarining integratsiyasi kelajakda ushbu sektorning asosiy rivojlanish yo'nalishlaridan biri bo'lishini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, O'zbekistonda ikkilik bank tizimini shakllantirish milliy moliya bozorining raqobatbardoshligini oshirish hamda xalqaro kapital oqimini kengaytirishga xizmat qiladi [16].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda islom bank xizmatlarini joriy etish bo'yicha nazariy va amaliy asoslar shakllanib bormoqda. Biroq ikkilik bank tizimini to'liq yo'lga qo'yish uchun huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, Shariat standartlariga mos nazorat tizimini yaratish, malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda aholining islom moliyasi bo'yicha moliyaviy savodxonligini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bu esa mamlakat moliya bozorining barqarorligi, investitsion jozibadorligi va iqtisodiy o'sishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston moliya bozorida islom bank xizmatlarini joriy etishning dolzarbligi hamda ikkilik bank tizimini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarni o'rganishda kompleks

ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, institutsional tahlil va qiyosiy tahlil usullari tashkil etdi. Shuningdek, ilmiy abstraksiylash, mantiqiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullari orqali islom bankchiligidan iqtisodiy mohiyati, tamoyillari va rivojlanish qonuniyatlarini yoritildi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro moliya institutlari hisobotlari, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari hamda islom moliyasi bo'yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Nazariy manbalarni umumlashtirish va qiyoslash asosida O'zbekistonda islom bank xizmatlarini rivojlantirish hamda ikkilik bank tizimini joriy etishning ustuvor yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

So'nggi yillarda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan mamlakatda islom moliya institutlari, ayniqsa, islom banklarini shakllantirish va ularni rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar katta qiziqish bilan amalga oshirilib kelinayotganligi, nafaqat davlat siyosati ustuvorliklari, balki, ilmiy sohada ham mazkur masala ustuvor ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi. Jumladan, O.A. Sobirov12 "O'zbekiston sharoitida an'anaviy banklar bilan birga islom banklari ham faoliyat ko'rsatadigan ikkilik bank tizimi modeliga o'tish va bunda an'anaviy tijorat banklarining Islomiy moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan alohida tarkibiy bo'linmalari (xususan, "Islom darchalari") faoliyatini yo'lga qo'yish" borasidagi o'zining ilmiy takliflarini ishlab chiqqan. Tadqiqot ishining ahamiyatli tomoni shundaki, olim tomonidan an'anaviy va islom banklari o'rtasidagi o'zaro farqlanish natijalariga asoslangan holda mamlakatda islom banklarini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan SWOT-tahlilning mazkur shakldagi islom moliya institutlarini shakllantirish imkoniyatlari sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatgan.

Yuqoridagi tadqiqot jarayonida kuzatilgani singari, D.S. Bayjanov ham an'anaviy va islom banklari faoliyati o'rtasidagi o'zaro farqli holatlarni tahlil qilish orqali "O'zbekiston sharoitida an'anaviy moliya muassasalari qoshida "Islom darchasi"ni maxsus bo'linma yoki shahobcha shaklida tashkil etilishi mamlakatda islom institutlarini shakllantirishning dastlabki bosqichidagi eng samarali yo'nalish" sifatida baholagan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, islom darachasi bank mijozlariga nafaqat islomiy tamoyillarga asoslangan moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, balki, islom moliyasi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ularni tanishtirish imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli, mazkur yo'nalish mamlakatda islom moliya institutlarini shakllantirishning dastlabki bosqichlarida bank mijozlarining islom moliyasi bo'yicha savodxonliklarini oshirishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda, T.H. Babamatov tomonidan o'tkazilgan tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosalar va tadqiqot yo'nalishlari yuqorida keltirilgan D.S. Bayjanov ilmiy tadqiqoti bilan o'zaro mos kelib, undan farqli o'laroq tadqiqot jarayonida "islom darchasini tashkil etishda rahbar va hodimlar, moliyaviy resurslarning to'liq ajratilganligi, shariat kengashi va AAOIFI bilan muvofiqlik yo'nalishlaridagi jami 10 talabarga muvofiqlikni ta'minlash zarur", degan xulosaga kelingan.

Yana bir mahalliy iqtisodchi G.S. Irgasheva islom institutlari faoliyati rivojlangan Malayziya tajribasidan O'zbekiston sharoitida ijodiy foydalanish borasidagi tadqiqoti orqali "islom moliyasiga asoslangan muqobil moliyalashtirish mahsulotlarining paydo bo'lishi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yuksaltirishga yordam berishiga qaramay, salohiyatli mijozlarning islomiy moliya sohasi bo'yicha tajribaga, shuningdek bilimga ham ega emasligi bu yangi sohaga doir mavjud kutilmalar ijobiy bo'lmasligi mumkin" ligini ilmiy jihaatdan asoslab bergan. Ushbu holat aholining diniy qarashlari islomiy yo'nalishda bo'lishini o'zi mamlakatda islom banklari faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha kutilgan samaradorlikni har doim ham ta'minlay olmasligini ko'rsatib, aholining turli ijtimoiy guruhlari, jumladan, milliy iqtisodiyot tarmoqlarida xo'jalik faoliyati yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida islom moliyasi, islom bankchiligi, islom moliyaviy vositalari kabi yo'nalishlarda targ'ibot va tashviqot ishlarini o'tkazilishini taqozo etadi.

B. Jo'rayev esa islom institutlari faoliyati ustuvor ahamiyat kasb etuvchi Saudiya Arabistoni, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) va Qatar kabi mamlakatlar amaliyotlarini tadqiq etish orqali "O'zbekiston sharoitida islom bankini tashkil etish orqali diniy sabablar hisobiga mamlakatning iqtisodiy faoliyatida ishtirok etmayotgan aholining mablag'larini investitsiyaviy omonatlarga jalb etishning muqobil vositasini shakllantirish imkonini berib, an'anaviy banklar uchun noodatli bo'lgan bank va uning mijozi o'rtasidagi xatarlar, foyda

va zararlarni taqsimlash tizimi orqali fuqarolarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi", degan xulosaga kelgan. Bunda olim islom institutlarining sukuk, bank xizmatlari, takaful, islomiy fondlar shaklidagi faoliyat yo'nalishlari bo'yicha xalqaro tajribalardan O'zbekiston sharoitida islom banklarini rivojlantirish imkoniyati yuqori ekanligini amaliy jihatdan asoslab berishga harakat qilgan hisoblanadi.

Umumiy holatda yuqorida keltirib o'tilgan tadqiqot natijalarini tizimli tahlil qilish asosida O'zbekistonda tijorat banki shaklida islom moliya institutlarini shakllantirishning zaruriyati ko'p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan belgilanishi mumkinligini aniqlashga erishdik. O'tkazilgan tahlillar orqali mamlakatda tijorat banki shaklidagi islom moliya institutini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyatini 1-jadvalda keltirilgan tartibda izohlashga erishdik.

1-jadval

O'zbekistonda islom banklarini joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati¹

№	Zaruriyat omili	Mavjud muammlar	Islomiy moliya mexanizmlarini qo'llash	Erishiladigan ijtimoiy-iqtisodiy samara
1	Aholining diniy ehtiyojlari	Foizli moliyaviy xizmatlarga nisbatan ehtiyotkor munosabat tufayli aholining bir qismi bank xizmatlaridan chetda qolmoqda	Shariat talablariga muvofiq moliyaviy xizmatlar (murobaha, ijara, mushoraka, muzoraba)ni joriy qilish	Bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni oshadi, moliyaviy inklyuziya kengayadi
2	Moliyaviy inklyuziyaning past darajasi	Ayrim aholi qatlamlari va kichik biznes subyektlari rasmiy moliya tizimidan tashqarida	Foizsiz moliyalashtirish va sherikchilik asosida investitsiya mexanizmlarini yo'lga qo'yish	Norasmiy kapital iqtisodiyotga jalb qilinadi
3	Kichik biznesni moliyalashtirish muammosi	Yuqori foiz stavkalari va garov ta'minoti talablari	Mushoraka va muzoraba asosida xatarlarni taqsimlash	Kichik biznes subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengayadi
4	Uzoq muddatli investitsiya resurslari taqchilligi	Infratuzilma va sanoat loyihalari uchun resurslar cheklangan	Sukuk orqali tashqi va ichki investitsiyalarni jalb qilish	Investitsiya muhiti yaxshilanadi, kapital oqimi oshadi
5	Bank tizimi resurs bazasining cheklanganligi	Aholi mablag'larining muayyan qismi norasmiy aylanmada saqlanmoqda	Mudaraba depozitlari va investitsiya hisobvaraqlarini joriy etish	Jamg'armalar bank tizimiga jalb qilinadi
6	Iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish zarurati	Spekulyativ operatsiyalar ulushi ortishi xavfi	Aktivlarga asoslangan moliyalashtirish modeli	Real sektorda investitsiya faolligi kuchayadi
7	Qishloq xo'jaligi moliyalashtirish	Fermerlarda aylanma mablag'lar	Salam va istisna' shartnomalari	Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish

	muammolar	yetishmasligi		barqarorligi oshadi
8	Tashqi islomiy kapitalni jalb qilish imkoniyati	Fors ko'rfazi va islom moliya bozori resurslaridan cheklangan foydalanish	Islom bank infratuzilmasini yaratish	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi oshadi
9	Moliyaviy barqarorlikni kuchaytirish	Qarz yuki va foiz risklarining yuqoriligi	Foyda va zararni taqsimlash tamoyili	Bank tizimi barqarorligi mustahkamlanadi
10	Raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish	Chekka hududlarda moliyaviy xizmatlar qamrovi past	Islomiy fintek (Islamic FinTech) va raqamli islom bank xizmatlari	Hududiy moliyaviy tengsizlik qisqaradi

Ushbu jadval ma'lumotlari tahliliga ko'ra, birinchi muhim omil sifatida aholining diniy qarashlari bilan bog'liq moliyaviy ehtiyojlar ajralib turadi. O'zbekiston aholisining aksariyati musulmonlardan iborat bo'lganligi sababli, moliyaviy munosabatlarda shariat talablariga muvofiqlikka ehtiyoj obyektiv xarakter kasb etadi. An'anaviy bank xizmatlarida foizli operatsiyalarning ustuvorligi ayrim aholi qatlamlarining rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanishini cheklab qo'yimoqda. Natijada, muayyan mablag'lar iqtisodiyotning norasmiy segmentida harakatlanib, milliy moliya tizimi resurs bazasining kengayishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, islom banklarining murobaha, ijara, mushoraka va boshqa shu kabi shariatga muvofiq instrumentlar orqali xizmat ko'rsatishi aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini kuchaytirish va moliyaviy xizmatlar qamrovini oshirish imkonini beradi.

Ikkinchi muhim jihat sifatida moliyaviy inklyuziya muammosi namoyon bo'ladi. Mamlakatda ayrim aholi qatlamlari, xususan, mikrobyuznes subyektlari, oilaviy tadbirkorlik va qishloq aholisi uchun an'anaviy kredit resurslariga kirish imkoniyati cheklangan. Bunda yuqori foiz stavkalari, qat'iy garov siyosati va kredit tarixiga doir talablar moliyaviy resurslarga kirishni murakkablashtiruvchi omillar sifatida xizmat qilmoqda. Islom bankchiligida esa sherikchilikka asoslangan moliyalashtirish instrumentlari kapitalni taqsimlashda risklarni o'zaro bo'lish tamoyiliga asoslanadi. Xususan, mushoraka va muzoraba modellari tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy bosimni kamaytirish bilan birga, investitsiya resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Yuqoridagi jadvalda aks ettirilgan yana bir muhim omil – aholi jamg'armalarining muayyan qismi rasmiy moliya tizimidan tashqarida saqlanayotganligi bilan bog'liq. Aholining ayrim qismi mablag'larni bank depozitlariga joylashtirishda diniy ehtiyotkorlikni saqlashi natijasida iqtisodiyotda "harakatsiz kapital" ulushi yuzaga keladi. Islom banklari tomonidan mudaraba asosidagi investitsiya hisobvaraqlari va shariatga muvofiq jamg'arma mahsulotlarining taklif qilinishi mazkur mablag'larni iqtisodiy aylanmaga jalb qilish imkonini kengaytirishi mumkin. Bu esa o'z navbatida bank tizimi likvidligini oshirish va investitsiya salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda islom banklarini joriy etish zaruriyati faqatgina diniy ehtiyoj bilan cheklanmasdan, balki iqtisodiyotning institutsional transformatsiyasi, moliyaviy inklyuziyaning kengaytirish, tashqi investitsiyalarni jalb qilish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim strategik yo'nalishi ekanligini ko'rsatadi. Shu bois mamlakatda ikki pog'onali (Dual Banking System) bank modelini bosqichma-bosqich joriy etish iqtisodiy jihatdan maqbul va institutsional jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi, degan xulosaga keldik.

Zamonaviy nazariyalarda moliya tizimining samaradorligi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi, investitsiya faolligi va iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan bevosita bog'liq deb qaralib, shu nuqtayi nazardan, moliyaviy institutlarni diversifikatsiya qilish, muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirish va moliyaviy resurslar

¹ Muallif ishlanmasi

taqsimotining samaradorligini oshirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, so'nggi yillarda S.H. Lav , B. Achdoyuran , A.T. Jimoh , D. Haryantov , A. Shireyen kabi iqtisodchi olimlar tomonidan islom moliya institutlari faoliyatini shakllantirish orqali mamlakatlar milliy iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga erishish imkoniyatlari kengayishi ilmiy jihatdan isbotlab berilganligi bilan xarakterlanadi.

Shu bilan birgalikda, O.A. Xaydarov , T.X. Babamatov , L.A. Saydirasulov , Sh.S. Oltayev kabi mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda O'zbekiston sharoitida islom bankchiligini joriy etish masalasi tadqiq etilgan bo'lib, bunda aynan islom moliya institutlarini shakllantirish orqali makroiqtisodiy samaradorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan qaralganda, nafaqat moliyaviy xizmatlar bozorini kengaytirish, balki makroiqtisodiy risklarni kamaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlashning muhim institutsional vositasi sifatida baholanishi mumkinligi ko'zga tashlanadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda islom banklari faoliyatining rivojlanishi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi va investitsiya muhitiga ko'p qirrali ijobiy ta'sir ko'rsatishi birinchi navbatda, mazkur ta'sir moliyaviy risklarni diversifikatsiya qilish va iqtisodiyotda qarzga asoslangan moliyalashtirish ulushini qisman pasaytirish orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda, islom bankchiligida aktivlarga asoslangan moliyalashtirish ustuvorligi iqtisodiyotning real sektori bilan moliyaviy munosabatlarning uzviyligini ta'minlab, moliyaviy "pufaklar" hosil bo'lish ehtimolini cheklaydi. O'tkazilgan tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, investitsiya muhiti nuqtayi nazaridan islom banklarining ahamiyati ayniqsa yuqori hisoblanib, bunda sukuk instrumentlari va islom investitsiya fondlari orqali uzoq muddatli kapital resurslarini jalb qilish imkoniyati infratuzilma va sanoat tarmoqlarini moliyalashtirish salohiyatini kengaytirishi mumkin bo'lib, iqtisodiy o'sishning kapital sig'imkor modelini qo'llab-quvvatlaydi.

Jumladan, islom moliya institutlari aholi mablag'larini rasmiy iqtisodiyotga jalb qilish orqali bank tizimi likvidligini oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatib, ushbu holat ichki investitsiya resurslarining kengayishi va tashqi qarzlarga qaramlilikning qisman kamayishiga xizmat qilishi mumkinligidan dalolat beradi. Umuman olganda, tahlil natijalari O'zbekistonda islom moliya institutlari, ayniqsa, islom banklari faoliyatini rivojlantirish mamlakat makroiqtisodiy barqarorligi, investitsion muhiti va moliyaviy inklyuziyani ta'minlashning muhim institutsional mexanizmi sifatida yuqori iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu esa mamlakatda islom moliya infratuzilmasini bosqichma-bosqich shakllantirishning iqtisodiy maqbulligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Shuningdek, mamlakatda yashirin moliyaviy talab mavjud bo'lib, aholining muayyan qismi diniy qarashlari sababli an'anaviy bank xizmatlaridan to'liq foydalanmayotgan bo'lishi mumkinligi islom bank xizmatlarining joriy etilishi mazkur aholi qatlamini rasmiy moliyaviy munosabatlarga jalb qilish va moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birgalikda, xalqaro islom moliya institutlari, xususan, Islom taraqqiyot banki (Islamic Development Bank – IsDB) bilan hamkorlik imkoniyatlari, Fors ko'rfazi mamlakatlari kapitali va sukuk bozorining o'sib borayotganligi tashqi investitsiyalarni jalb qilish nuqtayi nazaridan muhim imkoniyat sifatida baholanigan mamlakatda infratuzilmaviy va strategik loyihalarni moliyalashtirishning yangi manbalarini shakllantirishi mumkinligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot va fintek (FinTech) ekotizimining rivojlanishi islom bank xizmatlarini tezkor va nisbatan past xarajatlarda aholiga yetkazish imkoniyatini kengaytirib, ayniqsa, islomiy fintek (Islamic FinTech) platformalari chekka hududlarda moliyaviy xizmatlar qamrovini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'ladi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar O'zbekistonda islom banklari faoliyati rivojlanishi uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy, institutsional va moliyaviy asoslar shakllanganligini ko'rsatganligi sababli mamlakatda islom banklarini bosqichma-bosqich joriy etish va bunda dual banking, ya'ni, ikki bosqichli bankchilik tizimi (Dual Banking System) modeli asosida rivojlantirish iqtisodiy jihatdan maqbul va strategik ahamiyatga ega, degan xulosaga kelish mumkin bo'ladi. Demak, mamlakatda islom moliya institutlarining tijorat banklari shaklini rivojlantirish bo'yicha mavjud imkoniyatlar bu turdagi moliyaviy institutlarning tashkil etilishi natijada uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimizdagi mahalliy tijorat banklari tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining muqobilini amaliyotga joriy etilishi hisobiga bu turdagi xizmatlarni tarkibiy jihatdan chuqur diversifikatsiyalash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

O'zbekistonda an'anaviy va islom banklari bir vaqtda faoliyat yuritadigan ikki pog'onali bank modelini bosqichma-bosqich joriy etish doirasida, dastlabki bosqichda an'anaviy banklar qoshida shariat kengashi va AAOIFI standartlariga muvofiq keluvchi "Islom darchalari"ni tashkil etish zarur. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanib chekka hududlarda islomiy Fintex (Islamic FinTech) ekotizimini rivojlantirish hamda aholi va tadbirkorlar o'rtasida islom moliyasi bo'yicha moliyaviy savodxonlik va targ'ibot ishlarini tizimli yo'lga qo'yish lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda O'zbekiston moliya bozorini modernizatsiya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash va moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirishda islom bank xizmatlarini joriy etish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, islom bankchiligi nafaqat musulmon aholiga mo'ljallangan muqobil moliyalashtirish tizimi, balki real iqtisodiyotga yo'naltirilgan, risklarni adolatli taqsimlaydigan va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydigan samarali bank modeli hisoblanadi. Shu sababli mamlakatda an'anaviy bank tizimi bilan bir qatorda islom bank xizmatlarini ham rivojlantirish moliya sektorining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan ilmiy manbalar va xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ikki tomonlama (ikkilik) bank tizimini joriy etgan Malayziya, Indoneziya, BAA, Saudiya Arabistoni, Turkiya va boshqa mamlakatlarda moliyaviy xizmatlar bozori sezilarli darajada kengaygan, bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni ortgan hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari yaxshilangan. O'zbekiston uchun ham ushbu tajribalar dolzarb bo'lib, islom bank xizmatlarini bosqichma-bosqich joriy etish mamlakatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirishi mumkin.

Shuningdek, tahlillar islom moliyasi bo'yicha aholining va tadbirkorlik subyektlarining qiziqishi ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, foizsiz moliyalashtirish, sheriklik asosidagi investitsiyalar, ijara va murabaha kabi moliyaviy instrumentlarga talab yuqori bo'lib, ularni amaliyotga tatbiq etish kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, islom bank xizmatlarini rivojlantirish uchun huquqiy-me'yoriy bazani xalqaro standartlarga moslashtirish, Shariat talablariga muvofiq nazorat tizimini shakllantirish va malakali kadrlar tayyorlash zarurligi aniqlandi.

Umuman olganda, O'zbekistonda ikkilik bank tizimini shakllantirish moliya bozorining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish, aholi va biznes subyektlari uchun moliyaviy xizmatlar turlarini ko'paytirish, xalqaro islom moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Takliflar

- O'zbekistonda islom bankchiligi va islom moliyasi faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonun hamda zarur me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadga muvofiq.
- Amaldagi tijorat banklarida Islamic Window (islomiy darcha) faoliyatini bosqichma-bosqich joriy etish orqali to'liq islom banklarini tashkil etishga tayyorgarlik ko'rish lozim.
- Markaziy bank huzurida islom moliyasi bo'yicha maslahat va Shariat nazorati kengashini tashkil etish, islom moliyaviy mahsulotlarining shaffofligi hamda ishonchligini ta'minlash zarur.
- Oliy ta'lim muassasalari va bank-moliya tizimida islom moliyasi, islom bankchiligi va takoful bo'yicha maxsus ta'lim dasturlarini kengaytirish, xalqaro sertifikatlash tizimlarini joriy etish tavsiya etiladi.
- Islom taraqqiyot banki, AAOIFI, IFSB va boshqa xalqaro islom moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, ularning ilg'or tajribasi va standartlarini milliy amaliyotga tatbiq etish lozim.
- Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun murabaha, musharaka, mudaraba, ijara va sukuk kabi islom moliyalashtirish instrumentlarini amaliyotga keng joriy etish orqali tadbirkorlikni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish zarur.
- Aholining islom moliyasi bo'yicha moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar va ta'lim dasturlari orqali keng ko'lamli targ'ibot ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.
- Islom bank xizmatlarini raqamli bank texnologiyalari bilan integratsiyalash, mobil ilovalar va fintex yechimlarini rivojlantirish orqali xizmatlarning qulayligi va ommabopligini oshirish lozim.

Mazkur takliflarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi O'zbekistonda zamonaviy ikkilik bank tizimini shakllantirish, moliya bozorining barqarorligini mustahkamlash, investitsion jozibadorlikni

oshirish hamda iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son farmoni, 19.03.2025 y.
2. DIGEST: An Essential Guide to the 2024 Annual Report. Islamic Development Bank (IsDB), Jeddah, 2024. – 15 pages.
3. Sobirov A.O. O'zbekistonda islom bank ishini joriy qilish va rivojlantirish istiqbollari. Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 3, June, 2022. – pp. 1-17. URL: <https://interfinance.tsue.uz/wp-content/uploads/2022/07/15%D0%A1%D0%BE%D0%B1%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2-%D0%90.pdf>.
4. Bayjanov D.S. Islom moliya instrumentlari rivojlanishining zamonaviy holati. "Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, № 6 (8), 2022. – 26-37 betlar.
5. Babamatov T.H. Transformatsiyalash jarayonida islom bankchiligini rivojlantirish yo'llari. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, № 5 (05), 2025. – 146-153 betlar.
6. Irgasheva G.S. O'zbekistonda islom moliyasini rivojlanishida Malayziya tajribasidan foydalanish yo'nalishlari. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnal, I-son, May, 2023. – 137-145-betlar.
7. Jo'rayev B. Islomiy banklar tashkil etishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aalohida mamlakatlar bo'yicha tahlili. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnal, VII-son, Iyul, 2024. – 298-303 betlar.
8. Law S.H., and Ridhwan M.M. Effect of Islamic Financial System Stability on Economic Perormance in Indonesia. Journal of Islamic Monetary Economics and Finance, Vol. 8, No. 3, 2022. – pp. 371-406.
9. Acdoyuran B., Beser N.O., Kurt U. The Influence of Islamic Financial Development, Political Stability, Economic Growth, and Urbanization on Environmental Quality in OIC Countries. Turkish Journal of Islamic Economics (TUJISE), Vol. 12 (2), 2025. – pp. 168-190.
10. Jimoh A.T., Ajijolakewu S.A., Attah J.A., Afolabi H.O., Sanni I., Osunkule U.A., Abdulmajeed T.A., Khaleel S.I. Islamic Financial Services and Profitability o Islamic Banks. European Journal of Islamic Finance (EJIF), Vol. 13 (1), 2026. – pp. 15-32.
11. Haryanto D., Ismail A.G., Sriyana J., Tohirin A. The Impact of Islamic Finance on Poverty and Economic Growth: Empirical Evidence from Organisation of Islamic Cooperation Countries. International Journal of Sustainable Development and Planning, Vol. 21, No. 1, Jan., 2026. – pp. 117-125.
12. Shireen A., Rafi'I M. The Role of Islamic Finance in Enhancing Financial Stability and Economic Inclusion in the Post-Pandemic Era. Proceeding International Seminar on Islamic Studies, Vol. 7, No. 1, 2026. – pp. 351-358
13. Haydarov O'A. Respublikamiz tijorat banklarida islom moliya tizimidan foydalanishni takomillashtirish. Iqtisod va moliya, № 2 (150), 2022. – 34-39 betlar.
14. Babamatov T.X. Zamonaviy sharoitda islom moliya institutlari faoliyatining asosiy xususiyatlari. "Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar" nomli ilmiy, masoaviy, onlayn konferensiya materiallari to'plami, yanvar, 2026. – 48-52 betlar. URL: <https://zenodo.org/records/18325584>.
15. Saydirasulov L.A. Yangi o'zbekiston iqtisodiyotida islom moliya bozorining imkoniyatlari. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnal, V-son, 2023. – 120-124 betlar.
16. Oltayev Sh.S. Zamonaviy sharoitda islom moliya bozorining rivojlanish tendensiyalari. "Moya professionalnaya karyera" mejdunarodnaya nauchno-prakticheskij jurnal, vipusk № 82, Tom 1, mart, 2026. – s. 311-317.